

## Prezident Farg'ona tumanidagi yangi korxonalar bilan tanishdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI

Shavkat Mirziyoyev Farg'ona tumanidagi "Vodiy Shoes" korxonasidagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

O'tgan yili foydalanishga topshirilgan mazkur loyihaning umumiy qiymati 16 million dollardan ziyod.

Hozirda birinchi bosqichda 1 million juft poyabzal ishlab chiqarilmoqda. 2 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgan.

Mahsulotlar assortimenti keng, sifati yaxshi. Asosan mahalliy xomashyodan foydalanilgani uchun tannarxi ham arzon. Shu bois ichki bozorda import o'rnini bosib, xorijniki bilan raqobatlashmoqda. Eksport mo'ljali - 12 million dollar.

Ikkinci bosqichda korxona quvvatini 2 million juftga yetkazish rejalashtirilgan. Shu maqsadda yaqin atrofdagi 18 ta mahalla xotin-qizlari kasanachilik asosida ishga jalb qilinadi. Natijada 5 mingdan ortiq ayollarning bandligi ta'minlanadi.

Prezident shu yerdag'i to'qimachilik korxonasini ham kirib ko'rdi. «Bahodir Log'on» paxta-to'qimachilik klasteriga qarashli mazkur shirkat yiliga 10 ming tonna mahsulot tayyorlash quvvatiga ega. Yaponiya, Turkiya, Germaniya va Shveysariyadan uskunalar keltirib o'rnatilib, ip-kalava va mato ishlab chiqarish, mato bo'yash yo'lga qo'yilgan. 480 kishining bandligi ta'minlangan, shundan 300 nafari yoshlari.

Bu birinchi bosqich bo'lib, 2022-yilda ikkinchi bosqichni amalga oshirish rejalashtirilgan. Uning natijasida 1 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratib, eksport salohiyatini 16 million dollardan oshirish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirib, tayyor mahsulotlar turini ko'paytirish, eng muhim, bozor topish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Farg'ona viloyatida 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

### ***Manba***